

Khorezm And Deda Korkut: Onakuti, Fire Worship And Oguzes

Davronbek Oripov,

Associate Professor of Renaissance University of Education,

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

E-mail: bekdavr@mail.ru

Orcid number: 0009-0003-0025-7287

Annotation

A lot of research has been conducted in oral folk art and Turkology, many opinions have been expressed about the book epic "The Book of my Deda Korkut". From this point of view, it seems that there is no consensus about Deda Korkut and "The Book of my Deda Korkut". In fact, is he really a real person?

This article will present new thoughts about the personality of Deda Korkut, the history of the Oguz, the role of the epic "The Book of my Deda Korkut" in the history of the Turkic peoples. And scientifically based conclusions are given.

The personality of Deda Korkut has been investigated on the basis of ancient sources, historical chronicles, and extant works.

Key words: Deda Korkut, Prophet, "The Book of my Deda Korkut", Khorazm, people, aksakal, oguz, Salar Kazan, historical man, shaman, sector (bakhshi).

Annotatsiya

Xalq og'zaki ijodi va turkiyshunoslikda "Kitobi Dadam Qo'rqud" yoxud "Dada Qo'rqud kitobi" kitobiy eposi haqida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan, ko'p va xo'b fikrlar bildirilgan. Bunday olib qaraganda, ushbu epos yoki Dada Qo'rqud (Qo'rqut ota) haqida aytiladigan fikrning o'zi yo'qdek, tuyuladi. Aslida-chi, aslida ham shundaymi?

Mazkur maqolada Qo'rqut ota shaxsiyati, o'g'uzlar tarixi, "Kitobi Dadam Qo'rqud" eposining turkiy xalqlar tarixida tutgan o'rni haqida yangi fikrlar o'rtaga tashlanadi. Va baholi qudrat, ilmiy asoslanadi.

Qo'rqut ota shaxsiyati qadimgi manbalar, tarixiy solnomalar, bizgacha yetib kelgan asarlar, zamondosh tadqiqotchilar izlanishlari asosida tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Dada Qo'rqud (Qo'rqut ota), Rasululloh, "Kitobi Dadam Qo'rqud", Xorazm, el, oqsoqol, o'g'uz, Solor Qozon, tarixiy shaxs, shomon, baxshi.

Buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday yozadi: "Xorazmliklar Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar. Bu Iskandardan 980 yil ilgari bo'lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmga podshohlik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga ko'chib, turk podshohlari (ustidan) hukmronligini yurgizgan edi. Bu voqea Xorazmga odam joylashishidan 92 yil keyin bo'ldi" (Beruniy, 2022: 73). Ushbu qayddan, xorazmliklarda yil hisobi miloddan avvalgi 1292-yildan boshlangani, 1200-yilda esa Siyovushning

o'g'li Kayxusrav Xorazmdagi turklarga podshohlik qilgani ma'lum bo'ladi.

Demak, bundan 3 ming yil oldin Xorazmda turkiy qabilalar yashagan va davlat tizimi mavjud bo'lgan. Xorazm nomi qadimiy bitiklarda turli ko'rinishlarda yozilgan. Xususan, qadimgi forschada – **Uvarzmish**, arabchada – **Xvarizm**, milodiy VII asr boshlaridagi Xorazm tangalarida – **Xvrizm**, Bobilda – **Xumarizma**, elam tilida – **Marazmis**, yunonchada – **Xoraspiya**, lotinchada – **Xorasmiya**, mixxat yozuvida – **Uvarezmiiyya** deyilsa, qadim xitoy manbalarida – **Xoli-sh-mi-kich**, **Xosyun**, **Xolisimi Boli** tarzida ta'riflanadi.

Ba'zi bir mutaxassislarning fikriga ko'ra, Xorazm "past tekis yer", "serunum yer", "quyoshli yer" degan ma'nolarni ham bildirgan bo'lishi mumkin.

Mashhur sayyoh Vamberi bo'lsa Xorazm atamasini **Xoh razm** – urushga moyil,

jangovar degan ma'noda talqin etgan.

Klitsert Lerxga ko'ra, Xorazm – **Xuvarazmis**, ya'ni "past tekislik yer". Nemis olimi E.Zaxau

"Avesto"da qayd etilgan **Qayrizao** toponimi aynan Xorazm ekanini ta'kidlab, ushbu so'z ikki qismdan "zem-yer, qayri-oziq-ovqat" so'zlaridan tarkib topganini aytadi.

Xorazmda olib borilgan tadqiqotlar, shuningdek, mavjud yozma manbalarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, bu hududda shaharlar deb ataladigan 64 ta arxeologik yodgorlik mavjud bo'lib, bugungi kunda ular asosan vayronaga aylangan.

Ko'hna Xorazm tuproqlarida To'prak-qal'a (Yer qal'asi deya tarjima qilingan), Qizil-qal'a, Ayaz qal'a I, Ayaz qal'a II, Ayaz qal'a III, Chalpiq (Chilpiq) qal'a, Janbos qal'a, Janpik (Jampik) qal'a, Qirq-Qiz qal'a, Katta Guldursun, Qo'yqirilgan qal'a, Burgut qal'a, Gyaur (Gaur qal'asi) va boshqa tarixiy inshootlar mavjudki, ildizi miloddan avvalgi asrlar bilan bo'ylashadi.

Jumladan, Gaur qal'asi miloddan avvalgi IV – milodiy III asrlarga oid deya qaralib, Amudaryoning o'ng sohilida Chilpiq va Jampiq qal'a yodgorliklarining o'rtasida joylashgan. Ushbu qal'a ilk-antik davrda qurilgan bo'lib, bizgacha uning shimoliy va g'arbiy devorlarining bir qismigina yetib kelgan.

Qal'a yodgorligidan bizgacha, bezak ustunli asoslarga va devoriy rasmlarga ega kichik zallar, shuningdek, qurbonlik qilinuvchi hashamatli binolargina saqlanib qolgan. Katta ehtimol bilan, bu yerda otashparastlar (olovga sig'inuvchilar) ibodatxonasi joylashgan. "Gaur" so'zi, olimlarning fikriga ko'ra, "otashparast, olovga sig'unuvchi"

degan ma'noni anglatadi. Ushbu qal'adan, taxminan milodiy III asrlargacha foydalanilgan. Yana bir taxminga ko'ra, qal'a nomi Gyaur – G'ayur, kofir ma'nosini anglatgan bo'lishi mumkin. E'tiborlisi Gayur – kofir tarzidagi so'z turkiy xalqlar umumiy merosi hisoblangan "Kitabi Dadam Qo'rqud"da bot-bot uchraydi.

Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumanidagi Qirqqiz massividagi Burgut qal'a vohasida joylashgan shahar xarobasi – Burgut qal'a (milodiy VI—VIII asrlar) ham qadimiy yodgorliklardan biri hisoblanadi.

A.Terenojkin (1937), Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi (1946), Y.Nerazik (1953-56) tomonidan o'rganilgan ushbu qal'a o'zida ko'plab sinoatlar, mo'jizalarni jo qilgani bilan qimmatlidir. Xususan, "Saodat" jurnalida chop etilgan "Onaqutining saxovati" maqolasida Navro'z, uning qaysi o'lkada kelib chiqqani, ushbu qadimiy bayramning Burgut qal'aga nechog'lik aloqasi borligi xususida asosli javob berilgan (elib.buxdu.uz.).

Unga ko'ra: "Dunyoga ilk alifboni bergan buyuk allomalarning vatani bo'lgan, dunyoviy fanlarga asos solgan Xorazm yurti qadimda, hatto eramizdan avvalgi minginchi yillarda **Xvayrazam** deb atalgan. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va etnografik izlanishlar Navro'z bayrami ilk bor xuddi shu zaminda Niso (ya'ni, ayol shahri poytaxti bo'lmish Parfiyona) yunon va Ovrupa faylasuflari asarlarida Parfiyada nishonlanganini ashyoviy topilmalar tasdiqladi.

Bunga Burgut qal'a, Jomboq qal'a va Niso qo'rg'onlarida (har uchchalasi ham Qadimiy Xorazm arxeologik yodgorliklari hisoblanadi – D.O) bunyod qilingan va shu kunlargacha saqlanib qolgan "**olov uy**"lari yaqqol misol bo'la oladi.

Jumladan, Burgut qal'a markazida moviy gumbazli maqbara bo'lib, uning mehrobida Onaqutining ko'tarilgan qo'lida Zumrad tosh bo'lgan. Bahorgi teng kunlikda-shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni,

hozirgi taqvimimiz bo'yicha 22-martda maqbara gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri Onaquti qo'lidagi Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish uchun tayyor turgan qozonning o'txonasiga o't yoqqan", deya qayd etiladi.

Onaquti istilohidagi qut birikmasi Qo'rqu otadagi qut bilan o'xshash. "Kitabi Dadam Qo'rqud" o'g'uzlarning milliy kitobiy eposlaridan biri hisoblanadi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, o'g'uzlar haqidagi ilk tarixiy ma'lumotlar VI-VIII asrlarga oid yozma manbalarda, jumladan, O'rxun-Yenisey bitiktoshlarida, Xitoy, Vizantiya manbalarida uchraydi. Atoqli olimlar To'ra Mirzayev va Mamatqul Jo'rayevlarning qayd etishicha, ***"IX-X asrlarda esa o'g'uz qabilalari Sirdaryo sohillari va Orol dengizi bo'ylarida yashaganlar. Xususan, arab manbalarida "o'g'uz yabg'u (xoqon)larining qarorgohi" sifatida tilga olingan Yangikent, shuningdek, Sig'noq, Savron singari "o'g'uz shaharlari" ana shu hududda joylashgan. O'g'uzlarning afsonaviy homiysi, aql-zakovat va yuksak hayotiy tajriba timsoli bo'lgan Qo'rqu ota obrazi va u bilan bog'liq ilk afsonalar ham aynan shu hududda yuzaga kelgan. Qo'rqu ota haqidagi afsonalar Sirdaryo sohillarida yashovchi o'zbek va qozoqlar orasida hatto bizning davrimizgacha saqlanib qolganligi hamda uning qabri shu yerda bo'lganligi ham bu fikrni quvvatlaydi"*** (Mirzayev, Jo'rayev, 1999: 5).

Yana bir versiyaga muvofiq, qadimgi turkiy mifologiyada ruh tushunchasi Xudo odamlarga bergan ilohiy kuch tushunchasiga tengdir. Bular Xudodan chiqadigan qandaydir samoviy nurlar bo'lib, ular odamga kirib boradi va issiq uchqunlar kabi o'limgacha unda yashaydi, uning hayotiy va jismoniy energiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Ruh tushunchasi bir necha turdagi moddalarga bo'linadi.

Qut (kut) – ilohiy kelib chiqadigan odamning hayotiy kuchi, Xudoning inoyati odamni

so'nggi nafasigacha u bilan birga qoladi. Bu ruhning zamonaviy tushunchasiga yaqin, qut (ruh) o'limdan keyin boshqa dunyoga o'tadi (Oripov D, 2022:15).

E'tiborlisi, aynan shu faraz Xorazm tuproqlariga oid, otashparastlik ta'limoti, Onaquti qo'lidagi zumrad tosh va quti so'zlari ma'nosiga juda mos keladi.

Soz ilmi haqida gap ketganda Qambar boboni ham eslash joiz, albatta. Xorazm tuproqlarida "Ali Qambar", "Qambarning dutori" kabi iboralar ko'p qo'llanilib, bizningcha, Qambar bobo ham tarixiy zot hamda Qo'rqu otaga aloqador bo'lishi mumkin. Oshiq Oydin baxshilarning piri sanalsa, Qambar Bobo sozandalarning piri sifatida tan olinadi.

Rivoyatlardan birida aytilishicha, Payg'ambarimiz (s.a.v.) qarindoshi hamda kuyovi, to'rt xalifaning so'nggisi Ali ibn Abu Tolibning Qambarali ismli otboqari bo'lgan. U Hazrati Ali (r.a.)ga nihoyatda mehribon va sodiq bo'lib, qayerga borsalar doimo birga bo'lardi.

O'zbekiston hududida "Bobo Qambar" yoki "Qambar ota" nomida ba'zi ziyoratgoh joylar uchraydi. Ana shunday muqaddas ziyoratgohlardan biri Andijon viloyati Xo'jaobod tumanining qo'shni Qirg'izistonga yaqin janubiy chegarasida, Oqbo'ra daryosining adirlik yonbag'ridagi soya-salqin oromgohdir. Xalqimiz o'sha joyni va bu yerdagi noma'lum bir mozorni o'sha Hazrati Ali (r.a.)ning mehribon va sodiq otboqari – Qambar ota nomi bilan bog'laydilar.

Emishki, bobo Qambar (yoki Qambar ota) shu yerda vafot qilib, shu yerga dafn etilgan. Qambar ota – yilqining piri bo'lsa, Qo'rqu ota – qo'bizning piri hisoblangan.

Xulosa qilib aytganda, Qo'rqu ota, o'g'uzlar, "Kitabi dadam Qo'rqud" eposi bilan bog'liq O'zbekiston, xususan, Xorazm mintaqasiga oid afsona, rivoyat hamda manbalar talaygina. Kelgusida ular ustida chuqur tahlilga tortilgan izlanishlar olib borish

hamda tegishli xulosalar chiqarish lozim,
albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Beruniy. Tanlangan asarlar. I tom. –T.: Fan,
2022, B.73.
elib.buxdu.uz.

Мирзаев Т., Жўраев М. “Китоби дадам
Қўрқут” ҳақида // Ўзбек тили ва
адабиёти. – Тошкент, 1999.– №5. –
Б.33-38.

Zokirova, S., & Xusanova, G. (2024).
SOSIOLINGVOMADANIYATSHUN
OSLIK KONTEKSTIDA BOLALAR
O'YINLARI
TUSHUNCHASI. Farg'ona davlat
universiteti, (3), 547-547.

Zaylobidinovna, R. G. (2022). Comparative
Study of the Names of Children's
Games in Uzbek and
English. American Journal of Social
and Humanitarian Research, 3(8),
136-138.

Oripov D. Korkut toponimi ўzerine ўч fıkır.
Gўcebe Dergısı. Fıkır, Kўltўr, Sanat
ve Edebiyat Dergısı. Ađustos 2022
Sayı: 15.